

SAN'AT VA MADANIYAT – MAMLAKAT IJOBIY IMIDJINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Rasulov Azizjon
Xudoyberdiyev Otabek

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islom iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar fakulteti "Xalqaro munosabatlar" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalari

Anotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakatning xalqaro maydonda nufuzini oshirish borasida madaniy diplomatiyaning ajralmas qismi san'at va madaniyat sohasidagi ishlar mazmuni tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *san'at, madaniyat, madaniy diplomatiya, til va aloqa vositasi, gastrodiplomatiya*

Kirish:

San'at — ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan. Ibtidoiy san'atning dastlabki izlari so'nggi paleolit davriga, taxminan mil. av. 40—20-ming yillikka borib taqaladi. U davrda hali san'at inson faoliyatining mustaqil shakli sifatida ajralib chiqmagan edi. Keyinchalik madaniyatning o'sishi natijasida san'at alohida soha sifatida asta-sekin ajrala bordi. San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Estetik tafakkur tarixida san'at narsa va hodisalarni qanday bo'lsa shunday aks ettirish va hayotni go'zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash g'oyalari sari yuksalib bordi. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'at predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy-estetik ideal nuqtayi nazardan munosabat bildiradi va o'z estetik bahosini beradi.

Madaniyat inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya, turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada „madaniyat“ atamasi ostida mahsulotlar va ularni ishlab chiqarish, estetik ma'no berish hamda shu jarayonlarga bog'langan ijtimoiy munosabatlar tushuniladi. Bu ma'noda madaniyat o'z ichiga san'at, fan va ma'naviy tizimlarni oladi.

Xulosa qilib aytganda, San'at va madaniyat bir biriga bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Bu ikki tushuncha birgalikda mamlakat, xalqlarning rivojlanishi va ma'naviy rivojlanishi uchun zaruriy omillar hisoblanadi. San'at va madaniyatning davlat hayotidagi o'rni va rolini, shuningdek, madaniy diplomatiyaning ahamiyatlarini quyida ko'rib o'tamiz.

Ma'lumki mamlakatlar o'zining samarali rivojlanish yo'lida xalqaro aloqalarni rivojlantirish borasida o'zining(mamlakatning) samarali imidj siyosati, iqtisodiyoti ijtimoiymadaniy rivojlanish darajasidan kelib chiqib mamlakat ichida va xorijda olib borilayotgan muvofaqiyatli siyosatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va bunda davlat qiyofasini rivojlantirish yosh avlod uchun ulkan ma'naviy-ma'rifiy rol o'ynaydi. Mamlakatning ijobiy imidji uning raqobatbardoshligi, muvofaqiyatligi, barqarorligi, sezgirligi, ichki va tashqi bozordagi siyosiy subyektlarning jozibadorlik darajasini belgilaydi. Biroq, jamiyatni jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi asosiy insoniy qadriyalatlarga asoslangan milliy g'oyasiz davlatning barqaror qiyofasini shakllantirish mumkin emas. Davlatning ijobiy imidjini rivojlantirishga qaratilgan bir qator qarashlar mavjud. G'arbiy yevropalik olim J.Boden: "Davlatning tez fursatda rivojlanishi uchun davlatning ichki va tashqi siyosati mustaqil bo'lishi kerak",- degan. Bu fikri bilan mamlakatning yetarli darajada imidjini shakllantirish uchun davlatning ichki ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy va tashqi jihatdan esa me'yoriy tashqi savdo aloqalari chegaralari daxlsizligi va shu kabilarni nazarda tutgan edi.

Shu bilan bir qatorda O'zbekistonning sobiq Tashqi Ishlar Vaziri Abdulaziz Komilov shunday deydi: "Tasvir-davlatning ichki va tashqi siyosatidir. Tasvir yaratish juda qiyin, har kuni davlatning kuchli imidjini yaratish uchun kuchli harakat qilish kerak". Bu esa xuddi qurilishda uyni jozibali va mustahkam qurishga o'xshaydi ya'ni davlat imidjini yaratish juda katta siyosatni amalga oshirish demakdir.

Darhaqiqat, tasvir tushunchasi universal tushuncha bo'lib iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy axloqiy va madaniy jihatlar bilan bog'liqdir. Mamlakatning ijobiy imidjini rivojlantirishning asosiy omili - madaniy diplomatiyadir. Madaniy diplomatiya tushunchasi ikki so'z "madaniyat" va "diplomatiya" so'zlari birikmalaridan yuzaga kelgan, ikkisi ham muloqot shakllarini anglatadi, biroq vazifalari har xil bo'lib, aniqroq yondashadigan bo'lsak, diplomatiya an'anaviy tarzda yopiq eshiklar ortida muhokama va muzokaralardan iborat bo'lsa, madaniyat mohiyatan ochiq darvozalar va qizg'in muloqotlar maydonidir.

Madaniy diplomatiya. Dastavval madaniy diplomatiya tushunchasiga qisqacha izoh berib o'tsak. Madaniy diplomatiya tushunchasi ikki so'z: "Madaniyat" va "Diplomatiya", birikmalaridan yuzaga kelgan. Ikki so'z ham muloqot shakllarini anglatadi, biroq vazifalari farqlidir. Aniqroq yondashsak, diplomatiya an'anaviy tarzda yopiq eshiklar ortidagi muhokama va muzokaralardan iborat bo'lsa, madaniyat esa mohiyatan ochiq darvozalar va qizg'in muloqotlar maydonidir. Madaniy diplomatiya – bu ikki tomonlama munosabatlarni rag'batlantirish maqsadida madaniyatga oid g'oyalar, ma'lumotlar, qadriyatlar, tizimlar, an'analar, e'tiqodlar kabi bir qator omillar almashinuvida amalga oshiriladi.

Qudratli mamlakatlarga tegishli yumshoq kuchning muhim omillardan biri - til beixtiyor muloqot vositasiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, muayyan mamlakatga tegishli tilning nufuzi madaniy diplomatiyaga xos muhim strategiya omillaridan hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham ommalashib borayotgan madaniy

diplomatiya ko'lami, XXI asrning dolzarb muammolariga yechim sifatida, keng targ'ib etilishi kuzatilmoqda.

Madaniy diplomatiya diplomatiyaning ajralmas qismidir. Madaniy diplomatiya natijasida millatlar va xalqlar madaniyati rivojlanishi uchun keng zamin yaratiladi. Madaniyat haqida so'z borganda, O'zbekiston ancha yuqori o'rinlarda turadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida" gi PQ-668-sonli qarorlari (20.01.2021), "Madaniyat va san'at sohasini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarorlari (02.02.2022) va yana boshqa ko'plab qaror va farmonlar yurtimizda madaniy diplomatiyaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Shuningdek, yurtboshimizning "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi" degan gaplari ham bu sohaga qaratilgan e'tibordan nishonadir.

Bu kabi harakatlar natijasida, yurtimizda va chet elda ham o'zbek madaniyati va madaniy diplomatiyasi yutuqlari tarqalmoqda. Bu esa har birimiz uchun yuksak faxr va iftixordir. Zero, bu bilan o'zbek tili (muloqot va aloqa vositasi sifatida), madaniyati va milliy an'analari, milliy taomlari (gastrodiplomatiya sifatida) ni o'rganish va o'rgatish, namuna sifatida ko'rsatish uchun yuksak imkoniyatdir.

Xulosa. Yakunda aytishimiz mumkinki, hozirgi rivojlanib borayotgan dunyoda turli madaniyat to'qnashuviga duch kelishimiz mumkin. Bunday vaziyatda yuksak rivojlangan san'at va madaniyat an'analari davlatlarning imidjini, taraqqiyot belgilari yoxud madaniy tanazzulidan darak berishi mumkin. Madaniy diplomatiya hamda uning asosiy tarkiblari hisoblanmish san'at va madaniyat xalqlarning najoti va saboti demakdir. Jumladan, yurtimiz O'zbekiston ham bu borada jadallab ilgarilab bormoqda hamda yurtboshimiz tomonlaridan bu sohaga oid qator qonun va farmonlar ham imzolanmoqda. Masalan, quyida quyidagi qarorlar manzilini ma'lum qilamiz.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

1. <https://sg.docworkspace.com/d/sICrBmszkAfXa0qsG> Madaniy diplomatiya va uning ahamiyati-A.Rasulov
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/San%CA%BCat>
3. <http://lex.uz//docs/-5230682> Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida
4. <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>
5. <https://st.deepthought.industries/UFnyA3>